

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Tashqi iqtisodiy faoliyat

AT «Aloqabank» tadbirkorlik subyektlarini tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida qo`llab-quvvatlash, ularning eksport salohiyatini oshirishga o`z hissasini qo`shish maqsadida valyuta operatsiyalari sirasini va sifatini oshirib bormoqda. Hozirgi kunda AT "Aloqabank" tomonidan quyidagi chet el valyutadagi operatsiyalari amalga oshiriladi:

I. Chet el valyutasida hisobvaraqlar ochish va yuritish

Yuridik shaxslar uchun chet el valyutasida hisobvaraqlar ochish va yuritish xizmati tez va sifatli amalga oshiriladi. Mijozlar hisobvaraqlariga tushayotgan va chiqib ketayotgan valyuta mablag`lari mijozlar uchun qulay va o`z vaqtida xorijiy hamkorlarga yetib borishi uchun O`zbekiston Respublikasi va Chet elda barqaror reytingga ega bo`lgan 1-darajali (nufuzli) banklarda vakillik hisobvaraqlar ochilgan.

II. Eksport va import shartnomalariga xizmat ko`rsatish

Hozirgi kunda eksport va import shartnomalarining monitoringini yuritish Vazirlar Mahkamasining 21.07.2014-yildagi 199-sonli "O`zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi qarori asosida amalga oshiriladi. Eksport va import shartnomalari monitoringini yuritish bilan bir qatorda O`zbekiston Respublikasi hududidagi tadbirkorlik subyektlarining manfaatini ko`zlab bank tomonidan mijozlarga eksport-import shartnomalarining maqsadga muvofiq tuzilishida, xorijiy hamkorlar topishda, shuningdek boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog`liq operatsiyalar borasida konsultatsiyalar beriladi.

199 21.07.2014

III. Bank o`tkazmalarini amalga oshirish

AT "Aloqabank" mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida O`zbekiston va chet el banklarida vakillik hisobvaraqlarni ochgan. Ushbu hamkor xorijiy banklar orqali akkreditiv, bank o`tkazmalari va boshqa operatsiyalar amalga oshirilmoqda.

Korrespondent xorijiy banklar:

- [AJ Alfa-Bank](#)
- AG Commerzbank (Germaniya);
- [PAO "Sberbank" \(Rossiya\)](#)
- [YAJ Azia-Invest Bank \(Rossiya\)](#);
- KB Kookmin Bank (Koreya Respublikasi);
- AJ TengriBank (Iloro hisobraqam, Qozog'iston Respublikasi);
- OAJ Dos-Kredobank (Iloro hisobraqam, Qirg'iziston Respublikasi).

Korrespondent mahalliy banklar:

- [O`zbekiston Respublikasi TIA Milliy Banki](#)
- [ATB "O`zsanoatqurilishbank"](#)

- AIKB "Ipak Yuli"
- XATB "Madad Invest bank" (loro hisobraqam)

IV. UzRVBda chet el valyuta mablag`larining xarid qilish

Mijoz tomonidan import shartnomalari bo'yicha to'lovni amalga oshirish maqsadida mijozlar tomonidan xorijiy valyutani xarid qilishiga berilgan buyurtmanomalar ijrosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2000-yildagi 245-sonli "Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ta'minlanadi..

- 2000 yil 29 iyundagi 245-son qarori
- 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qarori
- 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qaroriga 1-ILOVA
- 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qaroriga 2- ILOVA
- Buyurtmanoma namunasi


V. Hujjatli operatsiyalar

Hozirgi kunda xalqaro hisob-kitoblarning aksariyat qismi akkreditiv usuli bilan amalga oshirilmoqda. Bunga sabab ushbu xalqaro hisob kitob vositasining ishonchliligi, sotuvchiga ham sotib oluvchiga ham tavakkalchilikning past darajadali. Shu jumladan, AT "Aloqabank"da ham tashqi savdo shartnomalarida akkreditivlarning har xil turlari ishlatilmoqda. Bankimiz ushbu hujjatli operatsiyalarini ijro uchun qabul qilish va bajarish vaqtida Xalqaro savdo palatasining 2007 yildagi XSP 600-sonli nashri tahriridagi "Hujjatli akkreditivlar uchun birhillashtirilgan qoidalar va odatlar"ga, 2010 yildagi XSP 758-sonli nashri tahriridagi "Kafolat uchun unifikatsiyalangan qoidalariga" va 1995 yildagi XSP 522-sonli nashri tahriridagi "Inkasso bo'yicha unifikatsiyalangan qoidalar"ga amal qiladi.


- UCP 600 2007 edition
- Incoterms 2010

AT "Aloqabank" hozirda xorijiy kredit liniyalarni jalb qilish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Xalqaro tashkilotlardan VISA International (hamkor a'zolik) xalqaro to'lov tizimi, Western Union - tezkor pul o'tkazmalari tizimi (agentlik), Jahon banklararo moliya telekommunikatsiyalari jamiyati (S.W.I.F.T.) tashkilotlariga a'zodir. Bankning asosiy hamkorlariga quyidagilar kiradi:



KB  Kookmin Bank



National Bank of Uzbekistan